

XAVFNI BOSHQARISH TIZIMINING BOJXONA NAZORATINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI

Nazarov Abdusalom Ortiqovich

*Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti
Maxsus fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi*

Alimjanov Sanjar Erkinjon o'g'li

*Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti
4-kurs BI-220 guruh kursanti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bojxona nazoratini tashkil etishda xavflarni boshqarish tizimini qo'llanilishini dolzarbliki ko'rib chiqildi. Bojxona organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini tubdan o'zgartirish, rivojlangan mamlakatlar bojxona qonunchiligiga imkon qadar yaqinlashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu tahlil va xavflarni boshqarish tizimini joriy etish orqali bojxona nazoratini soddalashtiriladi.

Kalit so'zlar: bojxona organlari, TIF ishtirokchilari, byurokratik baryerlar, Jahon bojxona tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, xavfni boshqarish tizimi, xavf modullari, tasodifiy tanlov, xavf profillari, TIF ishtirokchilarini xavf darajalari bo'yicha toifalash, xavfni minimallashtirish.

Аннотация: В данной статье рассмотрена актуальность применения системы управления рисками при организации таможенного контроля. Одним из основных направлений радикального изменения приоритетов деятельности таможенных органов, максимально приближенных к таможенному законодательству развитых стран, является упрощение таможенного контроля за счет внедрения системы анализа и управления рисками.

Ключевые слова: таможенные органы, участники ВЭД, бюрократические барьеры, Всемирная таможенная организация, Евразийский экономический союз, система управления рисками, модули рисков, случайный отбор, профили рисков, классификация участников ВЭД по уровням риска, минимизация риска.

Annotation: This article examined the relevance of the use of a risk management system in the organization of customs control. One of the main directions of radical changes in the priorities of the activities of customs authorities, as close as possible to the customs legislation of developed countries, is the simplification of customs control through analysis and the introduction of a risk management system.

Key words: customs authorities, FEO participants, bureaucratic barriers, World Customs Organization, Eurasian Economic Union, risk management system, risk modules, random selection, risk profiles, categorization of FEO participants by risk levels, risk minimization.

O'zbekiston Respublikasining barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun amalga oshiriladigan eksport-import jarayonlarini imkoni boricha soddalashtirish, ichki iste'mol bozorini himoya qilish, tovar moddiy-boyliklarning chegaralar orqali noqonuniy olib o'tilishi, kontrabanda va bojxona qoidalarining buzilishiga qarshi kurashish, turizmni rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlarni yaratish, Jahon bojxona tashkiloti (bundan buyon matnda - JBT deb yuritiladi) tomonidan bojxona amaliyotida qo'llash maqsadida taklif etilgan bojxona tartib tamoyillari, standartlari, qoidalariga amal qilgan holda o'z ish faoliyatimizni olib borishni davrning o'zi taqozo etmoqda.



Dunyo mamlakatlari bojxona tizimiga beriladigan baho quyidagi 3 ta asosiy mezon orqali baholanadi:

xalqaro standartlarga javob beradigan Bojxona kodeksining mavjudligi;
uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning qabul qilinganligi;
xavfni boshqarish tizimining mavjudligi.

Bizga ma'lumki 2018 yil dekabr oyigacha O'zbekiston bojxona tizimida xavfni minimallashtirish tizimining bo'lmaganligi, bojxona ma'murchiligining xalqaro darajadagi mavqeyini pasayishiga olib kelgan. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyatiga baho berishda xavfni minimallashtirish tizimining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bojxona organlari faoliyatida xavfni boshqarish tizimi (bundan buyon matnda - XBT deb yuritiladi) alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham xavfni boshqarish tizimi dunyo tajribasida bojxona nazoratining asosiy falsafasi sifatida e'tirof etiladi.

Risk bilan bog'liq jarayonlarni o'rganuvchi riskologiya fani XXI asrda paydo bo'ldi. Ushbu fanning zamonaviy rivojlanish bosqichi fundamental ilmiy bazaning yaratilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Riskologiyaning paydo bo'lishi - ishlab chiqarishda ham, kundalik hayotda ham riskni tahlil qilish, baholash, prognozlash, dasturlash va rejalashtirishga bo'lgan katta ehtiyoj bilan bog'liq.

Xavf ya'ni "risk" so'zining kelib chiqish tarixini o'rganar ekanmiz, qiziq holatning guvohi bo'lamiz. Bu so'z fransuzlardan olingan bo'lib, ularda "risque" - "risk" degan ma'noni bildirgan. Fransuzlar esa uni italiyaliklardan olishgan: italyan tilida "risiko" "riskli ish" degan ma'noni anglatadi. Italiyaliklar esa o'z navbatida yunoncha "risikon" "jarlik" yoki "risk" so'zidan foydalanishgan.

Ko'plab dunyo mamlakatlari tillarida risk so'zi tarjimasi o'zgartirilmagan holda qabul qilingan: Alban (rrezik), ingliz (risk), belorus (rizika), bolgar (risk), bosnya (rizik), vallyi (risg), golland (risico), daniya (risiko), irland (riosca), ispancha (riesgo), italyancha (rischio), katalon (risc), latviya (risks), litva (rizika), makedoniya (rizik), nemis (risiko), norvegiya (risiko), polsha (ryzyko), portugaliya (risco), ruminiya (risc), serbiya (rizik), ukraina (rizik), finlandiya (riski), fransiya (risque), xorvatiya (rizik), shvesiya (risk), estoniya (risk), turkiya (risk), Ozarbayjon (risk), indoneziya (risiko), malayziya (risiko).

O'zbek tilining izohli lug'atida xavf atamasiga quyidagi ta'rif berilgan :
xavf (arabcha qo'rqinch, qo'rqish, vahima, hadiksirash).

1. Biror xatarli hodisa yoki falokat sodir bo'lish ehtimolligi, xatar. Bu voqeadan xabar topgan Sulton Ali mirzo o'lim xavfi o'ziga ham yaqinlashib kelayotganini sezdi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Shoshish kerakmas, chunki bu yil toshqin xavfi yo'q. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.



2. Xavotirlanish, xavfsirash, xavotir, tashvish. Hamisha xavfda ko'nglim bu muhabbat intihosidan, Meni ham etmasa majnun debon Ra'noning savdosi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon .

O'zbek tilining izohli lug'atiga ko'ra xavf biror xatarli hodisa yoki falokat sodir bo'lish ehtimolligi ma'nolarini bildiradi.

Xavf tushunchasini ma'lum bir voqea-hodisa, jarayon natijasida vujudga kelishi ehtimoli bo'lgan, salbiy yoki ijobiy holat sifatida talqin etishimiz mumkin. Bunda voqea-hodisa yoki jarayonning salbiy yoki ijobiy holat ekanligini keltirib chiqaruvchi omillar fanda ehtimoliy nazariya, sintez, tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Xavf tushunchasiga turli xil talqinlar berilgan:

Xavf atamasi ko'pgina Yevropa tillarida bir xil ma'noga ega bo'lib, noqulay oqibatning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan riskini bildiradi.

Ta'kidlash joizki, tashqi savdo aloqalari va mamlakat ichki iqtisodiyotining rivojlanishi bilan tashqi iqtisodiy faoliyat (bundan buyon matnda - TIF deb yuritiladi) ishtirokchilari tomonidan bojxona organlarining qonun hujjatlarini buzilishi ko'rinishida xavflar paydo bo'la boshlagan. Ushbu xavflarga normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, bojxona organlarida bojxona nazorati vaqtida xavflarni aniqlash, oldini olish va bartaraf etish bilan shug'ullanuvchi muayyan metodologiya yo'qligi sabab bo'lgan. Buning natijasida esa, TIF ishtirokchilari oldida byurokratik to'siqlarni paydo bo'lishiga olib kelgan. Xavfni boshqarish tizimining tadbir qilinishi ushbu muammolarga optimal yechim sifatida halol tadbirkorlar faoliyatini qo'llab quvvatlagan holda, bojxona organlaridagi cheklangan resurslardan samarali foydalanib bojxona qonun-hujjatlarning buzilishini minimallashtirish uchun optimal vositalaridan biriga aylandi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda bojxona nazoratini ta'minlashda bojxona organi xavfni boshqarish tizimini keng qo'llagan holda TIF ishtirokchilarining noqonuniy harakatlarini amalga oshirishni minimallashtirishib, davlatning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazilishini oldini olmoqda. Bojxona organlari bojxona chegarasidan o'tuvchi shaxslar nazoratini amalga oshirishda bojxona nazoratni amalga oshirish, rasmiylashtiruvga sarflanadigan vaqtni minimallashtirish, tovar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazish sharoitlarining jahon standartlariga muvofiqligini ta'minlash va ular ustida amalga oshiriladigan bojxona nazorat shakllarini optimallashtirish uchun xavfni boshqarish tizimini qo'llamoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlarga imtiyoz va preferensiyalarni to'g'ri qo'llanilishini nazorat qilish, bojxona to'lovlarining to'liqligini ta'minlash, muayyan tovarlarga nisbatan taqiq va cheklovlarga rioya etilishi, bojxona sohasidagi jinoyatlar va ma'muriy



huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda ham xavflarni boshqarish tizimi muhim rol o'ynamoqda.

Xususan, Yuqorida keltirilgan ishlar samarasi o'laroq bugungi kunda tizim orqali eksportda **83%**, importda **72,4%** yuklar soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirilganligi, bojxona rasmiylashtiruv vaqtini importda 2,1-martaga, eksportda 3-martaga kamaytirilganligi, bojxona ko'rigi samaradorligi 2,4-martaga oshirilganligi, bojxona qonun hujjatlarining buzilishini oldini olish samaradorligi 4-martaga oshirilganligi hamda davlat byudjetiga **640 mlrd.** so'mdan ortiq qo'shimcha bojxona to'lovlarning undirilishi kabi bir qator ijobiy natijalarga erishildi.

Bugungi kunda bojxona xavfini aniq talqini yo'q. Masalan, **Yevropa Ittifoqida** bojxona xavfi deganda, Yevropa Ittifoqi bo'ylab ham, milliy miqyosda ham tovarlar bilan bojxona ishlarini olib borishga to'sqinlik qilish ehtimoli tushuniladi. **AQShda** bojxona xavfi (yuqori darajadagi xavf), agar ushbu yuklar bilan bog'liq bo'lgan xavfning oshishi to'g'risida taktik razvedka ma'lumotlari mavjud bo'lsa va xavflarni baholash metodologiyasi bo'yicha baholangan bo'lsa, yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan aniq yuk yoki konteynerlarni yuborish, **Rossiya Federatsiyasi** bojxona xizmatida xavflarni boshqarish tizimi konsepsiyasida bojxona xavfi bojxona qonunchiligiga rioya qilmaslik ehtimoli deb talqin qilinadi. O'zimizning milliy qonunchilikda esa **bojxona xavfi** bu bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilmasligi ehtimolining darajasi (Bojxona kodeksi 204-modda) deb ataladi.

Xavfni boshqarish tizimi (XBT) - bojxona xizmatining resurslarini eng muhim va ustuvor yo'nalishlarda bojxona nazoratini tasodifiy tanlov o'tkazish prinsipiga asoslangan samarali bojxona nazoratini amalga oshirishni ta'minlaydigan mexanizmi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, bojxona operatsiyalari jarayonida bojxona nazorati shakllarini tovar bir qismiga nisbatan yoki bir nechta tovarlardan aynan xavf darajasi yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tovarga nisbatan qo'llashni tushunish mumkin. Xavflarni boshqarish bojxona nazoratining zamonaviy usullarining asosiy prinsipidir. Ushbu usul bojxona nazorati samaradorligini kamaytirmasdan bojxona organlari resurslaridan optimal foydalanish imkonini beradi va TIF ishtirokchilarining ko'pchiligini haddan tashqari byurokratik nazoratdan ozod qiladi.

Ushbu tizimning maqsadi – bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishining oldini olish bo'yicha bojxona organlari faoliyatining muhim va ustuvor yo'nalishlari bo'yicha bojxona xizmati resurslarini maqbul taqsimlashni ta'minlovchi va bojxona xizmati resurslarini tanlash prinsipi asosida samarali bojxona nazoratini ta'minlaydigan zamonaviy bojxona ma'muriyatchiligi tizimini yaratishdan iborat.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, bojxona XBTda tasodifiy tanlovning bir qator xususiyatlarini hisobga olish kerak:



- salbiy oqibatlarning mavjudligi;
- oqibatlarning barqaror yoki progressiv xarakteri;
- bojxona qonunchiligini buzish ehtimolining minimal chegarasi;
- o'zgaruvchanlik;
- baholashning subyektiv-obyektiv xarakteri.

Tizim ishlab chiqilishida oldiga bir qancha ya'ni, mavjud cheklangan kuch va vositalardan optimal foydalanish, samaradorlikni tushirmagan holda bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini ta'minlash, sarflanayotgan vaqt va xarajatlarni tejash, xalqaro savdoni rivojlantirishga ko'maklashish kabi ilg'or maqsadlar qo'yildi. Buning uchun tizimda xavflarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan **“Tasodifiy tanlov”**, **“Xavf profillari”** va **“TIF ishtirokchilarini xavf darajalari bo'yicha toifalash”** xavf modullari yaratildi.

1) **Tasodifiy tanlov usuli** - noma'lum xavfni aniqlash uchun belgilangan davriylik asosida bojxona nazorati obyektlarini tasodifiy tanlanishini ta'minlaydi.

Xavfni boshqarish tizimini to'laqonli amalga kiritish orqali “yalpi” bojxona nazoratini o'tkazishdan voz kechgan holda, xavf profillari yoki tasodifiy tanlov asosida tovar va transport vositalarining bojxona nazorati 4 ta yo'laklardan biriga yo'naltirilgan holda amalga oshiriladi.

“Sariq yo'lak” - xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi;

“Qizil yo'lak” - xavf darajasi yuqori ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi;

“Yashil yo'lak” - xavf darajasi past bo'lgan tovar va transport vositalarini chiqarib yuborish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda, bojxona nazorati shakllari ularga nisbatan amalga oshirilmaydi;

“Ko'k yo'lak” - xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlov asosida aniqlangan tovarlarga nisbatan bojxona nazorati shakllari ular chiqarib yuborilgandan so'ng amalga oshiriladi.

2) **Xavf profillari** - xavf sohasi, xavf indikatorlari to'g'risidagi ma'lumotlar yig'indisi, shuningdek, bojxona operatsiyalarini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarga xavfning oldini olish yoki uni imkon qadar kamaytirish bo'yicha zarur choralarini ko'rish to'g'risidagi ko'rsatmalar.

XBTni tahlil qilish orqali bojxona organlari xavf to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan xavf profillarini ishlab chiqadi va ularni qo'llashning o'ziga xos shartlarini ya'ni xavf ko'rsatkichlarini belgilaydi. Bugungi kunda tovarlarni mamlakat bojxona hududiga olib kirishda yoki u yerdan olib chiqishda bojxona xodimlarining shaxsiy

sezgi yoki boshqa operativ ma'lumotlariga asoslangan xavf profillari doirasidan foydalanilmoqda.

Xavf indikatorlari va xavf profillarini ishlab chiqish bojxona organlari xavflarni boshqarishni tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonning quyidagi bosqichlari ajratish mumkin:

3) TIF ishtirokchilarini toifalash- bojxona organlari TIF ishtirokchilari faoliyatini hamda ular tomonidan bojxona chegarasi orqali olib o'tilgan tovarlar bo'yicha amalga oshirilgan bojxona operatsiyalarining natijalarini muntazam ravishda har tomonlama monitoring va tahlil qilib, natijalari bo'yicha xavf darajasini yangilab borilishini ta'minlaydilar.

TIF ishtirokchilarining xavf darajalari bo'yicha toifalarini belgilash natijalaridan xavfni boshqarish tizimi doirasida ularga nisbatan bojxona nazorati shakllarini differentsial tarzda qo'llash hamda tovar va transport vositalarini yo'laklarga ajratish uchun foydalaniladi.

TIF ishtirokchilarini toifalash jarayonida har bir mezon qiymatlari ketma-ketlikda avtomatlashtirilgan ravishda hisoblab chiqiladi va hosil bo'lgan natijalar asosida TIF ishtirokchilari faoliyatiga yakuniy baho beriladi.

Xavfni boshqarish tizimi jarayonlar sikli.

Xavfni boshqarish tizimini qo'llash samaradorligi baholanadigan ko'plab mezonlar mavjud bo'lib, ular orasida quyidagi ko'rsatkichlar asosiy hisoblanadi:

- ❖ xavflarni minimallashtirish bo'yicha chora tadbirlarning samaradorligi;





- ❖ bojxona nazorati maqsadlariga erishish darajasi;
- ❖ xavfni minimallashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarga sarflangan bojxona organlari resurslari;
- ❖ xavfni minimallashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarda bojxona nazorati obyektlari miqdori va ulushi;
- ❖ bojxona nazoratining turli bosqichlarida, shuningdek tovarlar chiqarilgunga qadar va undan keyin bojxona nazorati bosqichlari o'rtasida xavflarni minimallashtirish bo'yicha tadbirlarni maqbul taqsimlash darajasi va boshqalar.

Rus olimasi Alla Lukyanovaning fikricha, xavfni boshqarish tizimi – bojxona organlarining bojxona nazoratini tanlab o'tkazadigan asosiy elementi sanaladi. Professor Andrey Aleksandrovich Malsev esa bojxona organlarida xavflarni boshqarish tizimi iqtisodiyotning globallashuvi, tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish usullaridagi jiddiy o'zgarishlar, zamonaviy axborot texnologiyalarining rivoji bojxona xizmatini bojxona nazorati tartiblari va qoidalarini takomillashtirishga undaydi deb aytib o'tgan

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida byudjet daromadlarini undirishning nazorat qilinadigan muhitining zamonaviy g'oyasi bojxona organlari va deklarantlar o'rtasidagi munosabatlarda shaffoflikni ta'minlash, tashqi savdoni osonlashtirish maqsadida bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va tezlashtirishni nazarda tutadi. Bojxona qonunchiligi Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi Kioto konvensiyasi, JST va Jahon bojxona tashkiloti doirasidagi xalqaro shartnomalar qoidalariga asoslanadi.

Xavflarni boshqarish tizimidan foydalanishni nazarda tutuvchi bojxona nazoratining asoslari va tamoyillari 1973 yilda qabul qilingan (1999 yilda o'zgartirilgan) Jahon bojxona tashkilotining "Bojxona protseduralarini uyg'unlashtirish va soddalashtirish to'g'risidagi xalqaro KIOTO konvensiya"da ko'zda tutilgan:

- ❖ Bojxona nazorati bojxona qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan minimal miqdor bilan cheklanadi;
- ❖ Bojxona nazorati shakllarini tanlashda xavfni boshqarish tizimi qo'llaniladi;
- ❖ Bojxona nazoratidan o'tkaziladigan shaxslar va tovarlarni, shu jumladan transport vositalarini va bunday tekshirishning qay darajada amalga oshirilishini aniqlash uchun xavfni tahlil qilish usulini qo'llaydi;
- ❖ Bojxona xizmati rioya qilmaslik ehtimolini baholash bo'yicha chora-tadbirlar tizimiga asoslangan strategiyani qabul qiladi.

Xavfni boshqarish tizimidan foydalanish ko'lamining kengayishi savdoni yengillashtirishga qaratilgan mavjud talablarni optimallashtirishga, savdo hamjamiyati bilan hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilib, samarali nazorat va savdoni



yengillashtirish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Xulosa:

Xavfni boshqarish tizimi orqali bojxona jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha yondashuvlar, O'zbekistonda bojxona nazoratining o'ziga xos xususiyatlari va respublikadagi mavjud holat, mazkur sohadagi muammolar, shu bilan birga, bojxona nazoratini takomillashtirish bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasining o'ziga xos xususiyatlari va uni O'zbekistonda qo'llash istiqbollari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalari harakatini tezkor tartibga solishning optimal usuli xavfni boshqarish tizimi hisoblanadi. Ushbu tizimni yanada takomillashtirishyo'nalishida quyidagicha xulosalarga kelindi:

1. Xavfni boshqarish tizimi tadbirkorlik sub'ektlariga bir qator yengilliklar yaratadi. Xususan, ularning tovar va transport vositalarini "yalpi" nazoratdan o'tkazishdan voz kechishga, bojxona rasmiylashtiruvi uchun sarflanadigan vaqtni qisqarishiga hamda insofli TIF ishtirokchilarini rag'batlantirishga imkoniyat yaratadi.

2. Bu tizim tadbirkorlar bilan birga bojxona xodimlariga ham qulayliklar yaratadi. Jumladan, mavjud kuch va vositalardan samarali foydalangan holda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilish 67 alomatlari bo'lganlarini tahlil qilish orqali tanlaydi va ularni bojxona nazoratidan o'tkazish uchun sarflanadigan vaqtni qisqartiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi, O'zbekiston Respublikasining qonuni, 2020 yil
2. 1973-yilda qabul qilingan "Bojxona protseduralarini uyg'unlashtirish va soddalashtirish to'g'risidagi xalqaro KIOTO konvensiya"
3. M.Xamrayev, X.Ro'zmetov, A.Nazarov. Xavfni boshqarish tizimi: Darslik. - Toshkent: BI, 2021 y. – 263 bet.
4. "Система управления рисками при таможенном контроле товаров и транспортных средств" [Электронный ресурс] : учеб. пособие / И. А. Аксенов
5. Евросиё иктисодий иттифоқи Божхона кодекси.
6. <https://www.science-education.ru>
7. <https://lex.uz/>
8. <http://customs.gov.ru>